




# 8-mavzu:"Farhod va Shirin"dostoni



TILAME



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



TIIAME

Reja:


1. "Farhod va Shirin" dostoni haqida.
2. Dostonidagi maktublar - asar syujetidagi muhim badiiy lavha.
3. "Farhod va Shirin" dostonidagi ramziy timsollar
4. Dostonning badiiy xususiyatlari.



TIIAME

Adabiyot masalasi – bu ma’naviyat masalasidir...  
Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganlaridek:

“ O’zbek adabiyoti deganda beixtiyor ko‘z o‘ngimizda Alisher Navoiy siymosi gavdalanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimiz g‘ururi, shon-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qliki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.”



“Farhod va Shirin” dostoni syujeti esa XII bobdan Chin xoqoninig farzandsizligi va shahzoda Farhodning “yo‘qlik xonasidan borliq gulshaniga kelgani” ta’rifi bilan boshlangan. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni uchun tanlagan syujetda Farhodning Chindan, Shirinning Armaniyadan bo‘lishi - ijodiy niyat ijrosi uchun eng maqbul variantdir. Negaki, dostonning o‘zagi bo‘lmish “Ishqiy- qahramonlik” syujet chizig‘ining Chin - Armaniya orasida kechishi yozuvchiga o‘zini o‘ylatgan muammolar tadqiqi uchun zarur voqealarni asarga olib kirish imkonini yaratdi.



Chin mamlakatining shohi o‘g‘il farzand ko‘rganligi uchun xalqqa ehson qilib,bir necha kun bayram qiladi.Xalq uch yil soliq to‘lashdan ozod qilinadi.Podsho farzandiga yaxshi ism qo‘moqchi bo‘ladi. Bolaning yuzida “farri shohiy”,ya’ni shohlik nuri porlab turardi.Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o‘rin olgan edi.Shoh ”far” so‘ziga himmat,iqbol va davlat so‘zlarini bosh harflarini qo‘shgan edi, Farhod ismi hosil bo‘ldi. Chaqaloqni pokiza zotini ko‘rgan ishq ham unga Farhod ismini qo‘ygan va uni firoq, rashk, hajr, oh va dard so‘zlarini bosh harflarini tanlagan edi.



TIIAME

Badiy asar syujeti badiiy shakilning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, asarda bir biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xati- harakatidan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.

Jumladan, Farhodning Iskandar ko‘zgu tilsimini yechishga ishtiyoqi, Yunon mamlakatiga lashkar tortib borishi, ajdarho va Ahiraman dev bilan jangi kabi voqealar asarga hech bir zo‘rakiliksiz, o‘quvchi xayolini band etgan Farhod-Shirin linyasiga uzviy bog‘langan holda olib kiradi va muhimi, ular shoirga vatanparvarlik, adolatparvarlik, xalqlar hamdo‘stligi muammolarini atroflicha badiiy tadqiq qilish, fikrlarni ifodalash imkonini yaratdi.



TILAME

ertaklar.uz



**Farhod va Shirin**



TILAME

Navoiy o‘zining «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhodning Shirinka va Shirinning Farhodga yozgan maktublarida Nizomiy va Dehlaviy dostonidagi noma an’analarini davom ettirgan. “Farhod va Shirin” dostoni o‘zining tuzilishi, obrazlari, badiiy xususiyatlari jihatndan shu janrdagi yangi original asardir. Chunki Navoiyga qadar bunday xarakterdagi boshqa asarlar bo‘lmagan. Navoiyning asari oshiq va ma’shuqalarning o‘zaro sevgi-muhabbatlari mavzuidagi yozishmalari — nomalaridan tuzilgan o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy mundarijaga ega bo‘lgan asardir.



TIIAME

Ishq mavzusida yozilgan dostonlarning aksariyatida, oshiq va mashuqning bir-birlari bilan maktub orqali muloqot qilishlari asar pafosining eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. Chunki maktub dostondagi obrazlarning eng ichki intim hissiyotlarini , tuyg‘ularni ifodalab , xarakter yaratish xususiyatiga egadir. Sevishganlarning bir-birlari bilan maktub orqali muloqot qilishlari “ Farhod va Shirin “ hamda “ Layli va Majnun “ dostonida alohida o‘rin tutadi. Bu maktublar har ikkala dostondagi chuqur lirizim bilan to‘la , eng yorqin badiiy lavhalardir.



# “Farhod va Shirin” dostonidagi ramziy timsollar ifodalagan ma’nolar



TILAME

Timsollar nomi	Ular anglatadigan ma’no
Farhod	Haqqa yetishishni maqsad qilgan solik
Shirin	Mazhar, yani Haq jamolini o‘zida zohir qilgan timsol
Moniy, Boniy, Quran	Farhodga, ya’ni solikka dunyoviy ilmlarni o‘rgatadigan ustozlar
Suhaylo	Farhodga Haqqa yetishishda yo‘l ko`rsatuvchi murshidni topishga komaklashgan ustoz. Farhodning tariqatdagi 1-piri
Xizr	Tariqatdagi 2-pir



TILAME

Suqrot	Haqqa yetish va ko'ngil sirlarini yechishning yo'lini ko'rsatgan piri murshid
Ajdarho	Nafs
Dev	Saltanat
Samandar yog'i	Ishq
Sher	G'azab
Temir paykar	Ro'yo, yolg'on dunyo
Jamshid jomi	Ko'ngilni ochish kaliti
Oinayi jahonnamo	Ko'ngil
Xusrav, Sheruya, Yosuman	Nafsga qul bo`lgan, shayton izmidagi bandalar



TIIAME

Mustaqillik yaratgan yangicha hayot va sharoitda yosh avlodlar o‘z o‘rnini topishi va yangicha zamon, asrlarida ifodalangan g‘oyalarni tushunib, hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy 1484 yilda “Farhod va Shirin” dostonini yozdi. Navoiy bu dostonda Farhod va Shirinning sarguzashtlarini talablariga javob beradigan tafakkur va salohiyatga ega bo‘lishlari uchun Alisher Navoiy ijodini o‘rganish hikoya qilishda o‘zining gumanizm, xalqparvarlik, xalqlar do‘stligi, vatanparvarlik, tinchlik, obodonchilik, mehnatsevarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalalarini va ideallarini zo‘r badiiy san’atkorlik bilan ifodaladi. Farhod va Shirin obrazi “Xamsa”ning monumental obrazlari sifatida gavdalanadi.




TIIAME

Dostonda XV asr hayotining qator real lavhalari tasvirlanadi va xalqning tinch-farovon hayotga, obodonchilikka bo‘lgan intilishlari ilgari suriladi. “Farhod va Shirin”ning keng tarqalib, xalqning sevimli dostoni bo‘lishiga sabab ham mana shunda. Asardagi tasavvufiy g‘oya, insoniylik mohiyati haqidagi qarashlar go‘zal badiiy libosda berilgan. Bu badiiylikni ta’minlagan muhim omillardan biri, dostondagi badiiy-tasviriy vositalardir. Adabiyotni ma’naviyat xazinasi deb ta’riflashadi. Darhaqiqat, uning bag‘rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq hislar, latif tuyg‘ular – insonparvarlik,adolat, shafqat, o‘zaro hamjihatlik, do‘stlik mehr va muruvvat, sevgi va muhabbat, go‘zallikka tashnalik singari o‘lmas insoniy tuyg‘ular jamuljamdir.



TIAAME





# Mavzuga oid testlar



TIIAME

1.Beshikdagi nolasidanoq ishq dardi sezilib turgan qahramonni aniqlang.

A) Farhod B) Layli C) Majnun D) Bahrom

2.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qaysi voqealari bilan boshlanadi?

A) Chin xoqoniga tangri o‘g‘il hadya etishi bilan B) Farhodga ism qo‘yish voqealari bilan C) Chin xoqonining farzandsizligi voqealari bilan D) Farhod va Shirinning uchrashuvi bilan

3.Kim:"Seni dev qilg`usidir asir, Solib ikki ayog`ingga zanjir". "Xamsa"dagi qaysi timsol qismati shunday belgilangan?

A)Farhod B)Sa`d C)Iskandar D)Mudbir

4.Qaysi dostonda Navoiy shahzoda Badiuzzamonga nasihat qiladi?

a)”Hayrat ul-abror” b)”Farhod va Shirin” c) “Layli va majnun” d) hech qaysi



**Uyga vazifa** “Farhod va Shirin”  
dostonini o‘qish. Tisollarga tavsif  
berish.